

Xalq Pedagogikasining Farzand Tarbiyasidagi o'ri

Sodiqova Dilfuza Ropijonovna¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq pedagogikasi, xalq og'zaki ijodi, uning turlari va farzand tarbiyasidagi o'ri haqida fikrlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlari: Xalq pedagogikasi, xalq og'zaki ijodi, maqol, topishmoq, tez aytish, doston, qadriyat, vatanparvar, urf-odat, marosim.

O'sib kelayotgan yosh avlodni xalq pedagogikasiga milliy qadriyatlar vositasida tarbiyalash – mamlakatning milliy ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqqan holda avlod - ajdodlarimizning turmush tarzi an'analari, urf-odatlari hamda tajribalarini hisobga olgan, holda rivojlantirish muhim masalalaridan hisoblanadi. Bu esa, o'z-o'zidan ma'lumki, Respublikamizning milliy davlat sifatida ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy kamol toptiruvchi o'z taraqqiyot yo'lini qaror toptirish va uni barcha xalq ongiga singdirish zaruriyatini taqazo etadi.

O'zbekistondagi tub o'zgarishlarni oily maqsadi – an'analarni, urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash va yanada rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishdan iborat. Shunga ko'ra, mustaqillik ta'lim-tarbiya sohalarida ham, umuman jamiyat ma'naviy-axloqiy hayotida tub burilish davrini boshlab berdi.

Bizning mavzu tarbiya haqida borar ekan, bu jumlaning mohiyatini anglovchi, ochib beruvchi bir qancha tushunchalar mavjud, ya'ni bular urf-odat, marosim, bayram, an'ana kabi tushunchalardir. Urf-odat, marosim, qadriyat, bayram, an'ana kabi tushunchalar har bir xalqqa hos bo'lib va albatta, har bir xalqning o'ziga xosligini, milliylikini, tarixiy kelib chiqishini, boshqa xalqqa xos bo'lmagan qirralarini ko'rsatib beradi. Jamiyatning har bir a'zosi o'zining kelib chiqishi tarixini bilishi, qadriyat, marosim, bayram, an'analarni hurmat qilishi va o'z navbatida farzandlarini ham milliy ruhda tarbiyalashi lozim.

Farzandlarimiz go'zal axloq egasi bo'lishi uchun, ularning ongiga avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan an'analarni turmushimizda amal qilgan holda singdirishimiz lozim. Albatta, bu o'z ijobiy samarasini beradi va bu odatlar turmushimizda takrorlanib turishi natijasida ixtiyorsiz ravishda o'z-o'zidan bolalar ongiga singib boradi, hamda ularning tarbiyasiga, hulq-atvorini shakllantirishga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Xalqning pedagogik qarashlari uzoq asrlar davomida shakllangan va ular asosan xalq og'zaki ijodiga kiruvchi turli janrlardagi asarlarda va Qur'oni Karim hamda Payg'ambarimizning hadislarida o'z ifodasini topgan.

Xalq pedagogikasida tarbiyaning birlamchi, ikkilamchisi bo'lmaydi. Hamma narsa hisobga olinishi, hech bir soha chekkadan qolmasligi, ayni chog'da tarbiyaning nihoyatda nozik, injiq, murakkab tomonlari e'tiborga olingan holda, etti o'lchab bir kesishga amal qilinadi. Shuningdek, xalq tarbiyasida kecha, bugun va ertani o'ylab ish tutiladi, ya'ni tarbiyani o'tmishni unutmaslik, bugunning qadriga etishlik, kelajakka umid asnosida olib boriladi. Unda hayot, tabiat va jamiyatdagi har bir voqea-hodisa, predmet, ko'rinish qisqasi jonli jonsiz neki bor undan mukammal foydalanadi. Xalq pedagogikasining yana bir ibratli tomoni shundaki, hayot, tabiat, jamiyatdagi har bir voqea-hodisa, predmet, ko'rinishdan mukammal foydalaniladi.

O'zbek xalq pedagogikasi ayrim shaxslar yoki bir-ikki jamoa tomonidan yaratilmagan. Uni xalqimiz asrlar davomida o'zining boy hayotiy tajribalari, farzandlar kamoloti borasida tutgan tutumlari, sa'y-

¹Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrasida katta o'qituvchisi



harakatlari, yo'l-yo'riqlari, akl-zakovatlari bilan yaratgan. Xalq bisotidagi eng yaxshi so'zlar — duo, olqishlar ham katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega.

Xalq doimo bolalarda to'g'ri xulq-atvorni tarbiyalash to'g'risida g'amxo'rlik qilgan va tarbiyalash usullarini o'zi o'ylab topgan. Odatda xalqning dono fikrlarini esda saqlab qoluvchi, avlodan-avlodga o'tkazuvchilar — keksalar bo'lgan. Qariyalar kishilarning turmush tajribalaridan bahramand bo'lib, donolik darajasiga ko'tarilgan, xalq orasidan chiqqan «pedagoglar»dir. Ular yosh avlodga va yosh otionalarga o'z nasixatlari va maslahatlari bilan ta'sir ko'rsatganlar. Xalqning yuksak orzulari, maqsadlari, e'tiqod, fikrlarini o'zlarida aks ettirishgan. Shunday qilib, tarbiyachi-enagalar xalq orasida eng yaxshi pedagoglar vazifasini o'taganlar.

Masalan, yozuvchi Sadridin Ayniy o'zining bolalikdagi tarbiyachi-enagasi To'tiposhoni birinchi ustoz deb hisoblaydi. Abay Qo'nonboev enagasi Zeroni, Hamza o'z onasi Oyshani, Hamid Olimjon buvisini zo'r ehtirom bilan eslashadi va ularning mashhur bo'lib, elga tanilishlarida ular ko'rsatgan ta'sirni, xizmatni bot-bot e'tirof etishadi. Xalq og'zaki ijodining jozibadorligi bolalar e'tiborini o'ziga shunday jalb etadiki, ular hatto o'z o'yinlarini ham unutadilar.

Uzbek xalqining betakror shoiri Hamid Olimjon bolalik kunlari, buvisidan eshitgan ertaklari haqida shunday eslaydi: "Bolalik kunlarimda, Uyqusiz tunlarimda, Kup ertak eishtardim, So'ylab berardi buvim. Esimda o'sha damlar, O'zi uchar gilamlar, «Tohir-Zuhro», «Yoriltosh», Oyni uyaltirgan qosh,"

Ana, haqiqiy tarbiyachi, xalq ichidan chiqqan pedagog-buvining bola ongida, tasavvurida, ruhiyatida yasagan rangli olami, go'zal dunyosi!

Xalq donoligining yana bir sarchashmasi xalq maqollaridir. Maqollar xalqimizning o'z hayot tarzidan, asrlar davomida to'plagan tajribasidan chiqarilgan lo'nda, qisqa va aniq xulosalari, tafakkur va ongning, qalbining in'ikosi, aytadigan fikrining qaymog'idir.

Masalan, «Erka qilsa onasi, taltayadi bolasi», «Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar», «Rang ko'r — hol so'r», «Sepli qiz bo'lguncha, epli qiz bo'l», «Hunarli kishi xor bo'lmas», «Bir yigitga qirq hunar oz», «Ona yurtning — oltin beshiging», «Ona yurtning omon bo'lsa, rangi-ro'ying somon bo'lmas», «Bilagi zo'r Pirni yig'ar, bilimi zo'r mingni yig'ar», «Qatorda noring bo'lsa, yuking erda qolmas» kabi... Maqollarda xalqning yashash tarzi, urf-odatlari, atrofidagi kishilarga, voqea-hodisalarga munosabati, dunyoqarashi, ichki dunyosi — ma'naviyati, ruhiyati — hammasi ifodasini topadi.

Maqollarni aytish va o'rgatish orqali xalqimiz ardoqlagan xislatlar, fazilat, sifatlar, urf-odatlar, qadriyatlar bolalarimiz ongiga singdiriladi.

Maqollar xalq donoligining qaynar bulog'idir. Maqsad — shu buloqdan bolalarni baxramand qilish. Ular maqollarni yoddan bilsin, ma'nosini anglasin, hayotda unga amal qilsin. xalq og'zaki ijodida insoniylikni tarbiyalash haqidagi o'git-nasihatlarini maqollar orqali uqtirilishi bilan birga ayrim ertaklarda axloq va odob yuzasidan aytilgan maqollarning mazmunini obrazli bayon qilib berilishi orqali ham o'sha maqollarni naqadar hayotiy haqiqat ekanligi uqtiriladi. Shuningdek, maqollarning g'oyalari xalq donishmandlarining uzoq tarixiy davrlar davomida to'plangan va takror-takror sinovdan o'tgan turmush-tajribalari sifatida vujudga kelgan, yaratilganligi ilgari suriladi. Shu orqali yoshlarni ijobiy xatti-harakatlarga ega bo'lgan obrazlardan namuna olishga, unga erishishga targ'ib qilinadi.

Ko'pchilik ertak va dostonlarda ota-ona va keksalarning turmush tajribalarini ifodalash bilan birga yoshlarni unga bevosita amal qilishlariga undaydigan maslahat va pand-nasihatlar shakli ham asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Xalq donoligining yana bir chashmasi — topishmoqlar.

Topishmoqlar bolalarni kuzatuvchanlikka, topqirlikka, hozirjavoblikka, atrofidagi narsa — buyumlar, voqea-xodisalar va kishilardagi eng muhim xislatlar, tomonlar, qirralarni tez ilg'ab olishga, kuzatishga, e'tibor berishga, gaqqoslashga o'rgatadi. Masalan, «Oyog'i yo'q, qo'li yo'q — eshik ochadi»,



«Kechasi xizmatda, kunduzi izzatda», «O'zi erda, boshi ko'kda», «Sudrasang yuradi, sudralmasang turadi» kabi...

Xalq tarbiya tizimida «tez aytishlar» ham asosiy o'rinni egallaydi. Bu chinakamiga bolalar uchun amaliy mashq qilish maydonidir.

Tez aytishlar bolaning tilidagi nuqsonlarga barham beradi, nutqini ravon va ifodali qilishga, shu bilan birga miya, xotira mashqini amalga oshirishga, xam so'zlab, ham fikrlashga yordam beradi.

Masalan, «Qobil qahraton kishda qishloqda qishladi», «Ko'k karam ko'pmi, po'k karam ko'pmi», «Sobir sakkizta sabzi sanadi» kabi...

Xalq pedagogikasining negizi bo'lmish xalq og'zaki ijodining yana bir asosiy tarmog'i xalq dostonlaridir. Xalq dostonlarida hamma davrlarda, tarbiyaning eng dolzarb mavzularidan biri — vatanparvarlik va milliy g'urur, milliy iftixor, erk, ozodlik uchun kurash tuyg'ularini tarannum etishda asosiy o'rinni egallagan.

Bunday ma'suliyatli va nihoyatda nozik vazifani hal etishda hozir ham biz eng ta'sirchan va samarali vosita — xalq dostonlaridan o'rinni va salmikli foydalanmog'imiz lozim. Masalan, «Alpomish» dostonida shunday bir lavha bor: Qalmoq)lidan Barchinoy Hakimbekka xat yuboradi. U to'qson alpdan qirq kun ruxsat olib, shu qirq kunda Alpomishning etib kslishiga umid bog'laganini izhor etadi. Lekin xat Hakimbekning qo'liga tegmaydi, uni otasi Boybo'ri bekitib qo'yadi. Chunki u o'g'lining begona yurtga — Qalmoq eliga borishini hohlamaydi. Xatni Hakimbekning singlisi Qaldirg'ochoyim topib, akasiga beradi. Hakimbek xatni oladi-yu, indamaydi. Qaldirg'och javobini so'rganida «Bir xotinni deb, qalmoqlar bilan talashib yuramanmi», — deydi. Shunda shaddod qiz akasining yigitlik xamiyatiga tegadi va «Er yigit o'lmay, yorini birovga berami?» — deydi. Hakimbekning hamiyati qo'zg'ab, mudroq g'ururi junbushga keladi va otasining ma'n etishiga qaramay, Qalmoqqa yo'l oladi.

Endi Barchinga qaytaylik, Barchin Qorajondan Hakimbekning kelganini eshitib, «Alpomish kelsa kelibdi-da, nima qilay. Alpomish keldi deb etagiga osilib ketaveraymi, kelgan bo'lsa yaxshi. Men to'qson alpga va'da berganman. Alpomishga ham, ularga ham shartim bor. Kim shu tartlarimni bajarsa, shunga tegaman», — deydi. Ana uzbek qizining mardligi va jasorati, g'ururi! Bunday g'urning mo'jizaviy ko'rinishini dostonlardan tashqari yana qaerda ko'rsa bo'ladi? Albatta, dostonlarda, xalq og'zaki ijodi-da!

Demak, yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda ularda Vatanga muhabbat, fidoyilik, g'urur va hamiyat, or, nomus, milliy g'urur va milliy iftixorni tarbiyalashdan boshlashimiz kerak ekan. Bu fazilatlarni tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalari eng qudratli va ta'sirchan tarbiya vositasi vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, xalq og'zaki ijodi milliy mafkuraning negizini tashkil etadi va xalq pedagogikasining manbai hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. O.Musurmonova G.Boybekova “O'zbek xalq pedagogikasi”.-T.: “O'qituvchi” 2000y
2. M.Inomova “Oilada bolalarning ma'naviy, axloqiy tarbiyasi”-T.: “Ozbekiston” 1999y
3. O.Bo'riyev “Oila va yangi an'analar” -T.: “O'zbekiston” 1988y
4. Xasanbayev J.X., X.A.To'raqulov., O.A.Ravshanov., N.X.Kushvaktov // “Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi”. Jizzax-2007

